

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAVSHANOVA ADOLAT RAVSHAN QIZI

**AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMI SUV-BOTQOQ QUSHLARINING
GELMINTLAR FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

03.00.06 - Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ravshanova Adolat Ravshan qizi

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi suv-botqoq qushlarining gelmintlar faunasi va ekologiyasi..... 3

Равшанова Адолат Равшан кизи

Фауна и экология гельминтов водно-болотных птиц Айдар-Арнасайской системы озёр..... 21

Ravshanova Adolat Ravshan qizi

Fauna and ecology of helminths of waterbirds of the Aidar-Arnasay lake system 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAVSHANOVA ADOLAT RAVSHAN QIZI

**AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMI SUV-BOTQOQ QUSHLARINING
GELMINTLAR FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

03.00.06 - Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B1033 raqan bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saparov Kalandar Abdullayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Allamuratov Bauaddin
biologiya fanlari doktori, professor

Raxmatullayev Baxodir Amanovich
biologiya fanlari falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «24» dekabr kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№234-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy, Tel: (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «07» dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil «07» dekabrda №4-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.A.Jumanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, b.f.d., professor

M.K.Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, b.f.d., dotsent

Ya.I.Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida global iqlim o'zgarishi, tabiiy ekotizimlarning keskin o'zlashtirilishi biogeotsenozning asosiy komponentlaridan biri – hayvonot olami holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, antropogen transformatsiyalangan hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bog'liq holda suv resurslarining jiddiy qayta taqsimlanishi, degradatsiyaga uchrash natijasida qushlar vakillarining parazitlari, jumladan, gelmintlar xilma-xilligining keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, antropogen bosim kuchli bo'lgan hududlarda qushlar gelmintlari xilma-xilligining o'zgarishini baholash, asosiy gelmintozlarining yangidan hosil bo'lgan sun'iy ekotizimlarda joylashuvchangligini aniqlash va ularga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tabiiy suv ekotizimlarida yashaydigan qushlar, jumladan, ularning ov ahamiyatiga ega turlari hamda xonaki qushlarga zarar keltiradigan gelmintlar faunasini baholash, ularning moslashish strategiyasi va tarqalish xususiyatlarini aniqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada barcha suv havzalarida ko'chib yuruvchi va o'troq hayot kechiradigan qushlar gelmintlari tur tarkibining shakllanish qonuniyatlari, asosiy gelmintozlar populyatsiyalarining kengayotgani, ular yetkazayotgan iqtisodiy zarar ko'lamining oshib borayotgani aniqlanib, yovvoyi va xonaki qushlarni gelmintlar keltirib chiqaradigan turli kasalliklardan muhofaza qilishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zgargan ekotizim sharoitlaridagi suv-botqoq va xonaki qushlarning gelmintlar tur tarkibini inventarizatsiyalash, ekologiyasini asoslash, turli biotoplarda tarqalishini aniqlash va ularga qarshi zamonaviy kurash choralarini ishlab chiqish alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda biologik xilma-xillikni saqlash va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ichki suv havzalarimizdagi suv-botqoq qushlari va xonaki qushlarni gelmintozlardan muhofaza qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida¹ “Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv-botqoq qushlarida tarqalgan gelmintlar faunasi, parazitlar populyatsiyasining shakllanish yo'llarini aniqlash hamda suvda suzadigan xonaki parrandalarni gelmintozlardan muhofaza qilishning samarali metod va vositalarini ishlab chiqish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi PQ-4015-son “Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidai. PF-60-son. 2022 yil 28-yanvar. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrda 914-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida” Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Suv qushlari va xonaki qushlar gelmintlarining tur tarkibi, taksonomiyasi, tarqalishi, bioekologiyasi va ular gelmintozlariga qarshi kurash choralari bo‘yicha tadqiqotlar xorijlik yetakchi olimlar B.Czaplinski (1956), V.Baruš va boshq. (1978), М.Д.Сонин, V.Baruš (1996), R.K.Anderson (2000), D.I.Gibson, A.Jones, A.Keys (2005, 2008), I.Dinev (2010) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH davlatlarida suv-botqoq qushlari gelmintlar faunasi, taksonomik xilma-xilligi, ularning hayot sikllari, keng tarqalgan turlarining ekologiyasi, parazitlar kasalliklarni tashxislash va ularga qarshi kurashish usullarini ishlab chiqishga oid ma‘lumotlar A.H.Черткова, А.М.Петров (1959, 1961), И.Е.Быховская-Павловская (1962), Л.П.Спаская (1961), К.М.Рыжиков va boshq. (1973, 1974), Л.Ф.Боргаренко (1981, 1984, 1990), С.О.Мовсеян (2003) Е.В.Гвоздев va boshq. (2006) ishlarida keltirilgan.

O‘zbekiston suv qushlari va xonaki qushlarining gelmintlar faunasi, turlar tarkibi, sistematikasi, ekologiyasi, tarqalishi va asosiy gelmintozlariga qarshi kurash choralari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar M.A.Sultanov (1963), A.T.Turemuratov (1964, 1965), Akramova F.D. (2011), K.A.Saparov (2016), I.M.Arepbayev (2020, 2024), N.X.Tangirova (2021), A.Jangabayev (2021) tadqiqotlarida keltirilgan.

O‘zbekistonning qator hududlarida yovvoyi va xonaki suv qushlari gelmintlarining tur tarkibi va ekologik xususiyatlari o‘rganilganiga qaramay, aynan Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimidagi suv-botqoq qushlarining gelmintlar xilma-xilligi maqsadli o‘rganilmagan. Shu sababli ham Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi suv-botqoq va xonaki qushlarining gelmintlar faunasi, ekologiyasi va tarqalishini o‘rganish hamda parazitlar kasalliklar qo‘zg‘atuvchilari sonini tartibga solish usullarini ishlab chiqish borasida tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq hisoblanib, nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining biologik xilma-xilligi” (2021-2023); O‘zR FA Zoologiya institutining “Umurtqali hayvonlar gelmintlar faunasining shakllanish yo‘llari, taksonomiyasi va kurash choralari takomillashtirish” (2021-2024) mavzularidagi amaliy va fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi suv-botqoq qushlarining gelmintlar faunasini aniqlash, ekologiyasini asoslash hamda xonaki

oʻrdak va gʻozlarni asosiy gelmintozlardan muhofaza qilish choralarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Oʻzbekistonning Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi suv-botqoq qushlari gelmintlar faunasining tur xilma-xilligini aniqlash;

parazitlar faunistik komplekslarning tarqalishi va dominant guruhlar ekologik xususiyatlarini aniqlash;

gelmintlar faunasi va ularning xoʻjayinlari – suv-botqoq qushlari bilan biotsenotik aloqalarini ochib berish;

oʻrganilayotgan mintaqada xonaki oʻrdak va gʻozlarni asosiy gelmintozlardan muhofaza qilish metodlari va vositalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti yovvoyi va xonaki suv-botqoq qushlarining gelmintlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi suv-botqoq qushlari gelmintlar faunasi, ekologiyasi, gelmintlarning xoʻjayinlari bilan biotsenotik aloqalari, xonaki gʻoz va oʻrdaklarning asosiy parazitlar kasalliklariga qarshi kurashish hamda muhofaza metodlarini takomillashtirish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida zoologik, gelmintologik, parazitologik, ekologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi suv-botqoq qushlarida gelmintlarning 78 turi aniqlangan. Ulardan 29 turi Cestoda, 27 turi Trematoda, 3 turi Acanthocephala va 19 turi Nematoda sinfiga mansubligi qayd etilgan;

suv-botqoq qushlarining 6 turkumga mansub gelmintlar faunasining tuzilmasi boʻyicha aniq maʼlumotlar keltirilgan;

oʻrganilayotgan qushlarning gelmintlar faunasi shakllanishida alohida ahamiyatga ega gelmintlar va ularning xoʻjayinlari bilan biotsenotik aloqalari ochib berilgan;

qushlarning turli guruhlarida gelmintlar uchrash chastotasi va tadqiq qilinayotgan mintaqada invazion sirkulyatsiya yoʻllari aniqlangan;

xonaki gʻoz va oʻrdaklarni asosiy gelmintozlardan muhofaza qilish tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gelmintlar xilma-xilligi va ularning tarqalishida Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi va suv-botqoq qushlarining ahamiyati baholangan hamda mazkur qush turlarini gelmintlardan himoya qilish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi suv-botqoq qushlari, xonaki gʻoz va oʻrdaklar gelmintozlariga qarshi levamizol, timbendazol va prazikvantel preparatlarining yangi komplekslari asosida kurash choralari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda klassik va zamonaviy usullar qoʻllangani hamda ilmiy yondashuvlar, tahlillar asosida olingan natijalarning nazariy maʼlumotlarga mos kelishi, ularning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilgani, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat fundamental loyihalarini bajarish davomida tan olingani, morfometrik maʼlumotlar Biostat dasturida statistik tahlil

qilingani va amaliy natijalar vakolatli davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani hamda amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv-botqoq qushlari va xonaki g'oz va o'rdaklar gelmintlari turlar tarkibining aniqlangani, gelmintlar faunasining shakllanish xususiyatlari hamda tarqalishi talqin qilingani, gelmintlar va ularning xo'jayinlari bilan biotsenotik aloqalarining ochib berilgani hamda ekologik xususiyatlarining asoslangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati g'ozlar va o'rdaklarni asosiy gelmintozlardan muhofaza qilishning ekologik-epizootologik xususiyatlarini baholash va olingan natijalar Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va unga tutash hududlarda qushlarni gelmintozlardan korreksiyalash, mamlakatimiz universitetlari va kollejlari biologiya va veterinariya yo'nalishlarida ta'lim oluvchilar uchun "Parazitologiya" kursi bo'yicha o'quv qo'llanmalari ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv-botqoq qushlarining gelmintlar faunasi va ekologiyasi mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv-botqoq qushlarida tadqiqotlar natijasida 78 turga mansub gelmintlar identifikatsiya qilingan. Ulardan 29 turi sestodalar, 27 turi trematodalar, 3 turi akantosefalalar va 19 turi nematodalarga mansubligi aniqlangan. Shuningdek, qator gelmint turlari xonaki o'rdak va g'ozlarda ham uchrashi va keng tarqalgani qayd etilgan. Xonaki o'rdaklar va g'ozlardagi mikrosomakantoz, drepanidotenioz, fimbrarioz, prostogonimoz, exinostomoz, bilgarsiellez, amidostomoz, streptokaroz, tetramerozga qarshi yangi yuqori samaradorlikka ega antigelmintiklarning yangi komplekslaridan foydalanib ishlab chiqilgan tavsiyalar Jizzax viloyati veterinariya amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi Vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 27-maydagi 02/23-1166-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'rdak va g'oz parrandachilik xo'jaliklarida gelmintozlar tufayli iqtisodiy zararlar bir muncha kamayishi, qushlar sonini oshishi va epizootik jarayonning barqororligini ta'minlash imkonini bergan;

suv-botqoq qushlari xilma-xilligini saqlab qolish, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi Vazirligining Jizzax viloyati bo'limi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 27-iyundagi 03-03/3-6254-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va tutash hududlarda suv-botqoq qushlari populyatsiyalari holatini baholash va ularni saqlab qolish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun

tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda qushlar gelmintlari faunasining o'rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobida suv-botqoq qushlarining turli ekologik guruhlarida uchraydigan gelmintlar tur tarkibiga mansub bilimlar transformatsiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Amalga oshirilgan adabiyotlar sharhi dalolat beradi-ki, respublikaning ayrim hududlarida qushlarning alohida turlari, asosan tovuqsimonlar, qisman suvda suzadigan qushlarning gelmintlari o'rganilgan. Biroq suv-botqoq qushlari, xususan, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv-botqoq qushlari gelmintlar faunasi haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. Suv-botqoq qushlari gelmintlari faunasi va ekologiyasiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ishlar qishloq xo'jaligi va ovlanadigan hayvonlar gelmintozlariga qarshi kurashning zamonaviy metodlari va vositalarini ishlab chiqish favqulodda muhim hisoblanadi. Bularning hammasi ushbu dissertatsiya ishi mavzusining tanlanishi uchun asos bo'ldi.

Dissertatsiyaning **“Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining qisqacha tavsifi, tadqiqotning materiallari va metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi O'zbekistonning ushbu yirik, gelmintlarning ko'plab turlari uchun xo'jayin vazifasini o'taydigan, epizootologik va epidemiologik ahamiyat kasb etadigan, ko'p sonli suv-botqoq qushlarini o'ziga tortadigan suv havzasining o'ziga xosliklari, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi akvatoriyasida parazitologik materiallarni to'plash va qayta ishlashga doir metodik yondashuvlarga bag'ishlanganligi aks ettirilgan (1-rasm).

2020/2023-yillarda to'plangan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va tutash hududlardagi xonaki va yovvoyi parrandalarning gelmintlari miqdor va sifat bo'yicha qayta ishlash uchun asosiy material bo'lib xizmat qildi. Yovvoyi qushlar ov mavsumida, xonaki parrandalar yilning barcha fasllarida tekshirildi. Parazitologik yorib ko'rish metodi bilan 6 ta turkumga mansub 31 ta tur (qo'ng'irsimonlar, kurakoyoqlilar, qizilqanotsimonlar, g'ozsimonlar, turnasimonlar va rjankasimonlar) suv-botqoq qushlarning nusxalari o'rganildi, bunda mahalliy professional ovchilar xizmatidan foydalanildi.



1-rasm. O‘zbekiston xaritasi: Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi joylashuvi

Gelmintologik material qushlarni fanda ma’lum metodlar bo‘yicha yorib ko‘rish metodi (Dubinina, 1971) asosida olindi. To‘plangan gelmintlar fiksatsiyalandi: sestoda va trematodalar 70% li etanolda, nematoda va akantosefalalar Barbagallo suyuqligida qotirildi.

Gelmintlarni o‘rganish, o‘lchash, fotosurat va rasmlar Olympus CK2-TR, trinokulyar 300 m Ningo Yangti Optiks tadqiqotchilik mikroskoplari va Micro Cap V2.0 dasturi yordamida amalga oshirildi.

Gelmintlarni tur bo‘yicha aniqlash O‘zR FA Zoologiya instituti Umumiy parazitologiya laboratoriyasida² ilmiy jamoatchilikka ma’lum monografiyalar, aniqlagichlar bo‘yicha amalga oshirishdi (Barus et al., 1978; Сударииков, 1984; Сонин, 1985, 1986; Краснолобова, 1987; Боргаренко, 1981, 1984, 1990; Anderson, 2000; Мовсесян, 2003 и др.). Qushlar sistematikasi “Конспекту орнитологической фауны России и сопредельных территорий” (Степанян, 2003) bo‘yicha bajarildi.

Dissertatsiyaning “**Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi suv-botqoq qushlari gelmintlari faunasi, tarqalishi va ekologiyasi**” deb nomlangan uchinchi bobi 8 bo‘limdan iborat bo‘lib, unda aniq tadqiqotlar natijalari bayon qilingan.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi suv-botqoq qushlarida parazitlik qiladigan gelmintlar to‘rtta: Cestoda Rudolphi, 1808, Trematoda Rudolphi, 1808, Acanthocephala Rudolphi, 1808 va Nematoda Rudolphi, 1808 sinfga mansubligi aniqlandi. Hozirda gelmintlar turlarining umumiy soni 78 tani tashkil etadi: ularning 29 tasi Cestoda, 27 tasi Trematoda, 3 tasi Acanthocephala va 19 tasi Nematoda sinfga mansub (1-jadval).

² Akademik D.A. Azimov, professor F.D. Akramova, falsafa doktori (PhD) J.M. Yorqulovga ushbu ishni amalga oshirishda maslahat va metodik yordamlari uchun minnatdorchilik bildiramiz.

**Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi suv-botqoq qushlari gelmintlarining
taksonomik tarkibi va tur xilma-xilligi**

Oila	Tur
Cestoda Rudolphi, 1808	
Ligulidae	<i>Ligula intestinalis</i> (L., 1758) <i>Digamma interrupta</i> (Rud., 1810) <i>Schistocephalus solidus</i> (Müller, 1776)
Diphyllbothriidae	<i>Diphyllbothrium ditremum</i> (Creplin, 1825)
Dilepididae	<i>Paradilepis scolecina</i> (Rud., 1819) <i>Lateriporus clerici</i> (Johnston, 1912) <i>Anomotaenia microrhyncha</i> (Krabbe, 1869) <i>Anomotaenia microphallos</i> (Krabbe, 1869)
Hymenolepididae	<i>Aploparakis furcigera</i> (Rud., 1819) <i>Cloacotaenia megalops</i> (Nitzsch, 1829) <i>Dicranotaenia coronula</i> (Dujardin, 1845) <i>Diorchis brevis</i> (Rybicka, 1957) <i>Diorchis flavescens</i> (Kreff, 1871) <i>Diorchis inflata</i> (Rud., 1819) <i>Diorchis nyrocae</i> (Yamaguti, 1935) <i>Diorchis ransomi</i> (Shultz, 1940) <i>Diorchis acuminata</i> (Clerc, 1902) <i>Diploposthe laevis</i> (Bloch, 1782) <i>Drepanidotaenia lanceolata</i> (Bloch, 1782) <i>Drepanidotaenia spinulosa</i> (Dubinina, 1953) <i>Fimbriaria fasciolaris</i> (Pallas, 1781) <i>Microsomacanthus microsoma</i> (Creplin, 1829) <i>Microsomacanthus compressa</i> (Linton, 1892) <i>Sobolevicanthus gracilis</i> (Zeder, 1803) <i>Sobolevicanthus collaris</i> (Ratsch, 1786) <i>Sobolevicanthus fragilis</i> (Krabbe, 1869) <i>Flamingolepis tengisi</i> (Gvozdev et Maksimova, 1968) <i>Flamingolepis flamingo</i> (Skrjabin, 1914) <i>Tschertkovilepis setigera</i> (Frölich, 1789)
Trematoda Rudolphi, 1808	
Echinostomatidae	<i>Echinostoma revolutum</i> (Frölich, 1802) <i>Echinostoma dietzi</i> (Skrjabin, 1923) <i>Echinostoma miyagawai</i> (Ishii, 1932) <i>Echinostoma transfretanum</i> (Dietz, 1909) <i>Echinostoma paraulum</i> (Dietz, 1909) <i>Echinostoma robustum</i> (Yamaguti, 1935) <i>Echinochasmus coaxatus</i> (Dietz, 1909) <i>Echinochasmus spinulosus</i> (Rud. 1809) <i>Echinoparyphium recurvatum</i> (Linstow, 1873) <i>Echinoparyphium cinctum</i> (Rud., 1803) <i>Hypoderaeum conoideum</i> (Bloch, 1782) <i>Mesorchis denticulatus</i> (Rud., 1802)
Microphallidae	<i>Microphallus pygmaeus</i> (Levinsen, 1881)
Psilostomidae	<i>Psilochasmus oxyurus</i> (Creplin, 1825)
Phylophthallidae	<i>Philophthalmus skrjabini</i> (Efimov, 1937)

Cyclocoeliidae	<i>Cyclocoelium mutabile</i> (Zeder, 1800) <i>Typhlocoelum cucumerinum</i> (Rud., 1809)
Prosthogonimidae	<i>Prosthogonimus cuneatus</i> (Rud., 1809)
Notocotylidae	<i>Notocotylus attenuatus</i> (Rud., 1809) <i>Notocotylus chionis</i> (Baylis, 1928) <i>Catatropis verrucosa</i> (Frölich, 1789)
Strigeidae	<i>Cotylurus cornutus</i> (Rudolphi, 1808)
Diplostomidae	<i>Diplostomum spathaceum</i> (Rud., 1819)
Bilharziellidae	<i>Bilharziella palonica</i> (Kowalewsky, 1895) <i>Trichobilharzia ocellata</i> (La Valette, 1854) <i>Ornithobilharzia canaliculata</i> (Rud., 1819) <i>Dendritabilharzia pulverulenta</i> (Braun, 1901)
Acanthocephala Rudolphi, 1808	
Polymorphidae	<i>Polymorphus magnus</i> (Skrjabin, 1913) <i>Polymorphus minutus</i> (Goeze, 1782)
Filicollidae	<i>Filicollis anatis</i> (Schrank, 1788)
Nematoda Rudolphi, 1808	
Capillariidae	<i>Capillaria anseris</i> (Madsen, 1945) <i>Thominx anatis</i> (Schrank, 1790)
Diectophymidae	<i>Eustrongylides excisus</i> (Jägerskiöld, 1909)
Amidostomatidae	<i>Amidostomum anseris</i> (Zeder, 1800) <i>Amidostomum acutum</i> (Lundahl, 1848) <i>Amidostomoides monodon</i> (Linstow, 1882) <i>Amidostomum skrjabini</i> (Boulenger, 1926)
Trichostrongylidae	<i>Trichostrongylus tenuis</i> (Mehlis, 1846) <i>Epomidiostomum anatinum</i> (Skrjabin, 1915)
Ascarididae	<i>Ascaridia galli</i> (Schrank, 1788)
Anisakidae	<i>Contracaecum microcephalum</i> (Rudolphi, 1809) <i>Contracaecum spiculigerum</i> (Rud., 1809) <i>Porrocaecum crassum</i> (Deslongchamps, 1824)
Heterakidae	<i>Heterakis gallinae</i> (Gmelin, 1790) <i>Ganguleterakis dispar</i> (Schrank, 1790)
Tetrameridae	<i>Tetrameres fissispina</i> (Diesing, 1861) <i>Tetrameres gubanovi</i> (Shigin, 1957) <i>Tetrameres skrjabini</i> (Panova, 1962)
Streptocaridae	<i>Streptocara crassicauda</i> (Creplin, 1829)

Tadqiq qilingan qushlar gelmintlari faunasida gelmintlar alohida sinflarining yalpi soni bir xil emas. Sestoda sinfi vakillari eng ko'p sonli (29 ta tur) hisoblanadi. Tur tarkibiga ko'ra ikkinchi o'rinni trematodalar (27 ta tur) egalladi. Nematodalar 19 ta turni tashkil etdi. Eng kam tur tarkibi bilan Akantosefalalar (3 tur) ajralib turadi.

O'rganilgan suv havzasida 31 ta tur suv-botqoq qushlari vakillari (qo'ng'irsimonlar, kurakoyoqlilar, qizilqanotsimonlar, g'ozsimonlar, turnasimonlar va rjankasimonlar) gelmintlar bilan ancha yuqori darajada zararlangani aniqlandi (86.8%). Zararlanish intensivligi u qadar yuqori emas, bir nusxadan o'nlab nusxalargacha o'zgarib turadi.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, o'rganilgan qushlarning gelmint faunasi ko'rsatilgan turkumlari bir xil emas. G'ozsimonlarda gelmintlarning tur xilma-xilligi eng boy bo'lib, 53 ta turni o'z ichiga oladi. Gelmintlar turlarining eng kam soni qo'ng'irsimonlar va turnasimonsimonlar turkumlari vakillarida kuzatildi, turnasimonlarda 9 ta, qo'ng'irsimonlarda 8 tadan parazit turi aniqlandi. O'rganilgan suv havzasida gelmintlar faunasi suv-botqoq qushlari parazit chuvalchanglar sinflari darajasida qarab chiqilganda sezilarli farqlar kuzatildi (2-jadval).

2-jadval

Tadqiq qilingan mintaq suv-botqoq qushlari gelmintlar faunasi strukturasi

Sinf	Oila	Soni	
		avlod	tur
Cestoda	Ligulidae	2	3
	Diphyllbothriidae	1	1
	Dilepididae	3	13
	Hymenolepididae	11	12
Trematoda	Echinostomatidae	5	12
	Microphallidae	1	1
	Psilostomatidae	1	1
	Phylophthallidae	1	1
	Cyclocoeliidae	2	2
	Prostogonimidae	1	1
	Notocotylidae	2	3
	Strigeidae	1	1
	Diplostomidae	1	1
	Bilharziellidae	4	4
Acanthocephala	Polymorphidae	1	2
	Filicollidae	1	1
Nematoda	Capillariidae	2	2
	Dioctophymidae	1	1
	Amidostomatidae	1	4
	Trichostrongylidae	2	2
	Ascarididae	1	1
	Heterakidae	1	3
	Tetrameridae	1	3
	Streptocaridae	1	1
	Desmidocercidae	1	1
Jami:		49	78

Cestoda sinfi to'rtta oilaga mansub 29 ta turdan iborat, ular orasida tur xilma-xilligi Dilepididae (13 ta tur) va Hymenolepididae (12 ta tur) oilalarida kuzatildi. Trematoda sinfi vakillari 10 ta oilaga mansub 27 turni tashkil etdi. Turlarning eng ko'p soni Echinostomatidae (12 ta tur) va Bilharziellidae (4 ta tur) oilalarida qayd etildi. Qolgan 8 ta oila 1 tadan 3 tagacha trematoda turidan iborat. Acanthocephala sinfiga oid faqat 3 ta tur qayd etilgan bo'lib, ular ikkita: Polymorphidae va Filicollidae oilasiga mansub. 9 ta oilaga mansub nematodalar anchagina xilma-xil ekani aniqlandi (19 ta tur).

Tadqiq qilingan qushlarda ko'p hollarda gelmintlar bilan aralash invaziya qayd etilgani e'tiborga molik. Invaziyalangan qushlar, ham yovvoyi, ham xonaki parrandalarda ikkitadan beshtagacha parazit turi topildi. 283 ta zararlangan parrandaning 205 tasida parazitotsenoz aniqlandi, bu 72.4% ni tashkil etadi. Parazitotsenoz komponentlari ikkitadan beshtagacha tur assotsiatsiyasidan iborat turli birikmalarni hosil qilgan. Gelmintlarning har to'rtala sinfi vakillari birikmasi ham qayd etildi. Tadqiqot materialida ko'p hollarda Sestoda, Trematoda va Nematodalar bilan aralash invaziya kuzatildi.

Aniqlangan gelmintlarning 20 ga yaqin turi ayrim hollarda xonaki va yovvoyi parrandalar, baliqlar va odamlarda xavfli gelmintozlarni keltirib chiqaradigan o'ta patogen turlarga mansub (Ligulidae, Hymenolepididae, Echinostomatidae, Prostogonimidae, Notocotylidae, Bilharziellidae, Amidostomatidae, Anisakidae, Heterakidae, Tetrameridae, Streptocaridae, Polymorphidae oilalari).

O'rganilgan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi akvatoriyasida qushlarning alohida turkumlarida gelmintlarning taqsimlanishi juda katta farq qiladi. Qushlarning alohida guruhlarida gelmintlarning faunistik tahlili quyida keltirildi.

Qo'ng'insimonlar – Podicipediformes turkumi gelmintlar faunasi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ikkita turning: kulrang chakkali qo'ng'ir *Podiceps grisigena* (Boddaert, 1783) va katta qo'ng'ir *Podiceps cristatus* (Linnaeus, 1758) 20 ta nusxasi tekshirganilganda ularning gelmintlar bilan zararlangani aniqlandi. O'rganilgan qo'ng'irsimonlarning kasallanganligi 80% ni tashkil etdi. Invaziya intensivligi bittadan o'nlab nusxachaga o'zgarishga egaligi ma'lum bo'ldi. Gelmintlarning 8 ta turi: **Cestoda:** *Diphyllbothrium ditremum* (Creplin, 1825), *Ligula intestinalis* (L., 1758), *Digrama interrupta* (Rud, 1810), *Schistocephalus solidus* (Müller, 1776), **Trematoda:** *Echinochasmus coaxatus* (Dietz, 1909), *Mesorchis denticulatus* (Rud, 1802), *Microphallus pygmaeus* (Levinsen, 1881), **Nematoda:** *Tetrameres gubanovi* (Shigin, 1957) identifikatsiyalandi. Gelmintlarning qayd etilgan turlari Cestoda, Trematoda va Nematoda sinflari vakillaridir. Ularning rivojlanish siklida umurtqasizlarning ko'plab vakillari, qator hollarda suvda yashovchi umurtqalilar – baliqlar ishtirok etadi.

Kurakoyoqlilar – Pelecaniformes turkumi gelmintlar faunasi. **O'zbekistonning Shimoli-sharqiy mintaqasi** Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida tarqalgan qushlarning ikkita: kichik qorabuzov *Palacrocorax pygmaeus* Pallas, 1773 katta qorabuzov *Palacrocorax carbo* (Linnaeus, 1758) turiga mansub 7 ta nusxa o'rganildi. Qushlar yorib ko'rilganda ularning sestoda, trematoda va nematoda: **Cestoda:** *Ligula intestinalis* (L., 1958), *Schistocephalus solidus* (Müller, 1776), *Paradilepis scolecina* (Rud., 1819), *Cloacotaenia megalops* (Nitzsch, 1829); **Trematoda:** *Echinostoma revolutum* (Fröelich, 1802), *Echinochasmus coaxatus* (Dietz, 1909), *Echinochasmus spinulosus* (Rud., 1809), *Prosthogonimus cuneatus* (Rud., 1809), *Cotylurus cornutus* (Rudolphi, 1808), **Nematoda:** *Eustrongylides excisus* (Jägerskiöld, 1909), *Streptocara crassicauda* (Creplin, 1829), *Contracaecum spiculigerum* (Rudolphi, 1809) parazitlari bilan zararlangani aniqlandi.

O'rganilgan mintaqada kurakoyoqlilar gelmintlar turlari umumiy sonida (12) Sestodalar 4 ta, Trematodalar 5 ta va Nematodalar 3 ta turni tashkil etdi.

Qizilqanotsimonlar – Phoenicopteriformes turkumi gelmintlar faunasi.

O'zbekistonda ulardan faqat bittasi qizil g'oz *Phoenicopterus roseus* Pallas, 1811 uchraydi. Tuzkon ko'li hududida o'lim xavfiga duch kelgan. Qattiq yaralangan birgina nusxani 2022-yil 5-mart kuni o'rganishga muvaffaq bo'ldik. Uning tanasida sestoda, trematoda va nematodalar: **Cestoda:** *Sobolevicanthus gracilis* (Zeder, 1803), *Tschertkovilepis setigera* (Fröelich, 1789), *Flamingolepis tengisi* (Gvozdev et Maksimova, 1968); *Flamingolepis flamingo* (Skrjabin, 1914); **Trematoda:** *Echinostoma revolutum* (Fröelich, 1802); *Psilochasmus oxyurus* (Creplin, 1825), *Notocotylus attenuatus* (Rudolphi, 1809 *Philophthalmus skrjabini* (Efimov, 1937); **Nematoda:** *Tetrameres fissispina* (Diesing, 1861), *Streptocara crassicauda* (Creplin, 1829) topildi.

Biologik sikl xarakteriga ko'ra, qayd etilgan turlar (10) gelmintlarning geteroksen shakllariga mansubligi aniqlandi. Ularning hammasi oraliq xo'jayinlar ishtirokida rivojlanadi, ular vazifasini ko'p sonli umurtqasizlar turlari o'taydi.

G'ozsimonlar – Anseriformes turkumi gelmintlar faunasi. Xonaki va yovvoyi g'ozsimonlarining 215 ta nusxasi (15 ta turga mansub) o'rganilganda ularning 195 tasida parazit chuvalchanglar topildi, bu 90.7% ni tashkil etdi. To'plangan gelmintlardan 53 ta tur identifikatsiyalandi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida tarqalgan xonaki va yovvoyi g'ozsimonlarda parazitlik qiladigan gelmintlar to'rtta: Cestoda, Trematoda, Acanthocephala va Nematoda sinfiga mansubligi aniqlandi. Gelmintlarning umumiy soni hozirda 53 ta tur vakillaridan tashkil topgan; ulardan 18 ta tur Cestoda, 16 ta tur Trematoda, 3 ta tur Acanthocephala va 16 ta tur Nematoda sinfi vakillari sanaladi: **Cestoda:** *Ligula intestinalis* (Linnaeus, 1758), *Digramma interrupta* (Rudolphi, 1810), *Aploparakis furcigera* (Rudolphi, 1819), *Cloacotaenia megalops* (Nitzsch, 1829), *Dicranotaenia coronula* (Dujardin, 1845), *Diorchis flavescens* (Krefft, 1871), *Diorchis nyrocae* (Yamaguti, 1935), *Diorchis acuminata* (Clerc, 1902), *Diploposthe laevis* (Bloch, 1782), *Drepanidotaenia lanceolata* (Bloch, 1782), *Drepanidotaenia spinulosa* (Dubinina, 1953), *Fimbriaria fasciolaris* (Pallas, 1781), *Microsomacanthus microsoma* (Creplin, 1829), *Microsomacanthus compressa* (Linton, 1892), *Sobolevicanthus gracilis* (Zeder, 1803), *Sobolevicanthus collaris* (Ratsch, 1786), *Sobolevicanthus fragilis* (Krabbe, 1869), *Tschertkovilepis setigera* (Fröelich, 1789), **Trematoda:** *Echinostoma revolutum* (Fröelich, 1802), *Echinostoma miyagawai* (Ishii, 1932), *Echinostoma paraulum* (Dietz, 1909); *Echinostoma robustum* (Yamaguti, 1935); *Echinoparyphium recurvatum* (Linstow, 1873), *Echinoparyphium cinctum* (Rudolphi, 1803), *Hypoderaeum conoideum* (Bloch, 1782), *Cyclocoelium mutabile* (Zeder, 1800); *Typhlocoelium cucumerinum* (Rudolphi, 1809), *Prosthogonimus cuneatus* (Rud., 1809), *Notocotylus attenuatus* (Rudolphi, 1809), *Notocotylus chionis* (Baylis, 1928); *Catatropis verrucosa* (Fröelich, 1789), *Bilharziella polonica* (Kowalewskij, 1895), *Trichobilharzia ocellata* (La Valetti, 1854), *Dendrobilharzia pulverulenta* (Braun, 1901), *Polymorphus magnus* (Skrjabin, 1913); **Acanthocephala:** *Polymorphus minutus* (Goeze, 1782), *Filicollis anatis* (Schränk, 1788), **Nematoda:** *Capillaria anseris* (Madsen, 1945); *Thominx anatis* (Schränk, 1790), *Amidostomum anseris* (Zeder, 1800), *Amidostomoides monodon* (Linstow, 1882), *Amidostomum acutum*

(Lundahl, 1848), *Amidostomum skrjabini* (Boulenger, 1926), *Trichostrongylus tenuis* (Mehlis, 1846), *Epomidiostomum anatinum* (Skrjabin, 1915), *Ascaridia galli* (Schränk, 1788), *Contracaecum microcephalum* (Rudolphi, 1809), *Porrocaecum crassum* (Deslongchamps, 1824), *Heterakis gallinae* (Gmelin, 1790), *Ganguleterakis dispar* (Schränk, 1790), *Tetrameres fissispina* (Diesing, 1861), *Tetrameres skrjabini* Panova, 1962; *Streptocara crassicauda* (Creplin, 1829).

Turnasimonlar – Gruiformes turkumi gelmintlar faunasi. Uchta turga: qashqaldoq *Fulica atra*, suvmoshak *Rallus aquaticus* va suv tovug'i *Gallinula chloropus* mansub 39 nusxa o'rganilganda ularning 33 tasida gelmintlar aniqlandi, bu 84.6% ni tashkil etdi. Topilgan gelmintlar sestoda, trematoda va nematodalar vakillari ekani ma'lum bo'ldi: **Cestoda:** *Diorchis brevis* (Rybicka, 1957); *Diorchis inflata* (Rud., 1819), *Diorchis ransomi* (Schultz, 1940); *Fimbriaria fasciolaris* (Pallas, 1781); **Trematoda:** *Echinostoma dietzi* (Skrjabin, 1923); *Echinostoma transfretanum* (Dietz, 1909); *Notocotylus attenuatus* (Rud., 1809); *Dendritobilharzia pulverulenta* (Braun, 1901); **Nematoda:** *Streptocara crassicauda* (Creplin, 1829).

